



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№4**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARNING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR

**Kasimova Gulyar Axmatovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
 "Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrası professori, DSc  
 Email: [kasimovagulyora1960@gmail.ru](mailto:kasimovagulyora1960@gmail.ru)  
 ORCID: 0000-0002-9997-6104

**Aripova Kamola Botir qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda tizimga kiritilayotgan o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mamlakatda ijtimoiy himoya sohasini takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati, ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamlarni moliyalashtirish mexanizmlari hamda ijtimoiy yordamning manzilliligini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, yagona ijtimoiy reyestrni shakllantirish va ehtiyojmand aholiga ko'rsatilayotgan davlat yordamining samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosalar chiqarilib, ushbu sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, ijtimoiy nafaqa, davlat budjeti, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yordam, moliyalashtirish, yagona ijtimoiy reyestr.

**Abstract.** This article analyzes the reforms being implemented and the changes introduced in the financing system of social protection in the Republic of Uzbekistan. During the study, the state policy aimed at improving the social protection system, the mechanisms for financing social benefits and material assistance, as well as issues related to ensuring the targeted delivery of social support were examined. In addition, the introduction of digital technologies into the social protection system, the formation of a Unified Social Register, and the effectiveness of state assistance provided to vulnerable groups of the population were analyzed. Based on the results of the study, relevant conclusions were drawn on improving the financing of the social protection system, and proposals and recommendations aimed at further developing this sphere were developed.

**Key words:** social protection, social benefits, state budget, social policy, social assistance, financing, unified social register.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы проводимые реформы и изменения, внедряемые в систему финансирования социальной защиты в Республике Узбекистан. В ходе исследования были изучены государственная политика, направленная на совершенствование системы социальной защиты, механизмы финансирования социальных пособий и материальной помощи, а также вопросы обеспечения адресности социальной поддержки. Кроме того, проанализированы внедрение цифровых технологий в систему социальной защиты, формирование Единого социального реестра и эффективность государственной помощи, оказываемой нуждающимся слоям населения. По результатам исследования сделаны соответствующие выводы по совершенствованию финансирования системы социальной защиты, а также разработаны предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее развитие данной сферы.

**Ключевые слова:** социальная защита, социальное пособие, государственный бюджет, социальная политика, социальная помощь, финансирование, единый социальный реестр.



## KIRISH

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi har qanday davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini yaxshilash hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va uni moliyalashtirish mexanizmlarini samarali tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy himoya sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam turlarini kengaytirish, nafaqa va moddiy yordamlarni manzilli tarzda yetkazish hamda bu jarayonlarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim o'zgarishlar joriy etildi. Bu islohotlar davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish, ijtimoiy yordamning shaffofligini ta'minlash va aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu tizimni yanada samarali tashkil etish maqsadida joriy etilayotgan yangi mexanizmlar hamda sohada olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, bu borada turli olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ijtimoiy himoya tizimi aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, kambag'allik darajasini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida O'zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va uni moliyalashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotlarda davlat tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli ijtimoiy dasturlar amalga oshirilayotgani, ayniqsa, so'nggi yillarda ushbu tizimni raqamlashtirish va manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etilgan.

Xususan, G'. Xolmurodov Yangi O'zbekiston sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan. Uning fikricha, "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi — bu moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhlari, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar tizimidir."

Shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar ham ushbu sohadagi muhim ilmiy-amaliy manbalar hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida aynan tizimga kiritilishi ko'zda tutilgan o'zgartirishlar belgilab qo'yilgan.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi ko'p jihatdan uning moliyalashtirish mexanizmlariga bog'liqligi ta'kidlanadi. Masalan, World Bank hamda International Labour Organization (ILO) hisobotlarida ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirishda davlat budjeti, ijtimoiy sug'urta badallari va maqsadli jamg'armalar muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Ushbu tashkilotlar ijtimoiy yordam tizimini samarali tashkil etish uchun manzillilik, shaffoflik va moliyaviy barqarorlik tamoyillariga amal qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar ijtimoiy himoya tizimini samarali tashkil etish uchun moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy yordamning manzilliligini kuchaytirish va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishga oid islohotlarni chuqur tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, qiyosiy taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va uni samarali moliyalashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning asosiy



maqsadi aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish hamda davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Avvalo, ijtimoiy himoya tizimini boshqarish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ushbu tashkilot aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ajratish, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalarni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi. Agentlik faoliyati orqali ijtimoiy himoya tizimini yagona markazdan boshqarish va moliyaviy resurslarni maqsadli yo'naltirish imkoniyati yaratildi.

So'nggi yillarda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish jarayonida raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi joriy etildi. Mazkur tizim orqali yordamga muhtoj oilalar va shaxslar aniqlanib, ularga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam turlari elektron tarzda shakllantirilmoqda. Natijada ijtimoiy yordamlarni taqsimlash jarayoni yanada shaffof va adolatli bo'lishiga erishildi.

2026-yildan boshlab "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi asosida yagona ijtimoiy reyestr yuritilishi belgilandi. Ushbu tizim kambag'al oilalar reyestri va ijtimoiy himoya reyestrini birlashtirgan holda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash, ularga zarur yordam choralari aniqlash hamda moliyaviy resurslarni aniq maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalla tizimi orqali manzilli ishlash mexanizmi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla darajasida fuqarolarning ijtimoiy holatini o'rganish, ehtiyojmand oilalarni aniqlash va ularni davlat dasturlariga jalb etish orqali ajratilayotgan mablag'larning samaradorligi oshirilmoqda. Shu bilan birga, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining tashkil etilishi aholiga professional ijtimoiy xizmatlarni bevosita joylarda ko'rsatish imkoniyatini yaratdi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy yordam ko'lamini sezilarli darajada kengaytdi. Ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamlar bilan qamrab olingan oilalar soni ortib, ijtimoiy himoya tizimining qamrovi kengaymoqda. Shuningdek, davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning manzilliligi va shaffofligi ta'minlanib, korruptsiya holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, yagona ma'lumotlar bazasini yaratish va institutsional islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy siyosat samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Natijada davlat tomonidan ajratilayotgan moliyaviy resurslar aniq ehtiyojmand qatlamlarga yetib borishi ta'minlanmoqda hamda aholining ijtimoiy himoyasi mustahkamlanmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon kelgusida ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini yuksaltirishga muhim hissa qo'shishi kutilmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish bo'yicha ajratilgan mablag'lar (2024–2025)

Ko'rsatkich	Ajratilgan mablag' (so'm)	Izoh
Kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi va moddiy yordam	4,196 trln so'm	Oilalar va bolalarni qo'llab-quvvatlash
Mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolar uchun ijtimoiy nafaqalar	5,305 trln so'm	Pension yoshidagi fuqarolar uchun
Nogironligi bo'lgan 18 yoshgacha bolalar uchun nafaqalar	2,035 trln so'm	Nogiron bolalar uchun davlat yordami
Parvarish nafaqasi (nogiron bolalar va yolg'iz keksalar uchun)	773,6 mlrd so'm	Parvarish qiluvchilarga beriladi
Tug'ilish va dafn marosimi nafaqalari	496,4 mlrd so'm	Bir martalik ijtimoiy yordam
Boshqa ijtimoiy to'lovlar	80,6 mlrd so'm	Turli ijtimoiy dasturlar
<b>Jami</b>	<b>14 trillion so'mdan ortiq</b>	<b>Ijtimoiy himoya xarajatlari</b>

Yuqoridagi 1-jadval statistik ma'lumotlari O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish hajmi yildan-yilga oshib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2025-yilda ijtimoiy yordam dasturlariga 14 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratilgani davlat tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Eng katta mablag'lar mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolar uchun ijtimoiy nafaqalar hamda kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqalariga yo'naltirilgan (2-jadval).



2-jadval. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi uchun ajratilgan mablag'lar dinamikasi (2021–2025)

Yil	Ajratilgan mablag' (trln.so'm)	O'sish darajasi(%)
2021	10,46	-----
2022	13,65	+30,5%
2023	18,2	+24,5%
2024	20,2	+10,9%
2025	14,0 dan ortiq (ijtimoiy yordam to'lovlari)	—

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2021-yilda ijtimoiy himoya uchun 10,46 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 13,65 trillion so'mga yetib, 30,5 foizga oshgan. 2023-yilda esa ushbu xarajatlar 18,2 trillion so'mni tashkil etib, yana 24,5 foizlik o'sish kuzatilgan. 2024-yilda ijtimoiy himoya tizimi uchun ajratilgan mablag'lar 20,2 trillion so'mga yetgan.

Mazkur ko'rsatkichlar davlatning ijtimoiy siyosati aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilganini ko'rsatadi. Ijtimoiy himoya xarajatlarning oshishi aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda manzilli ijtimoiy yordam tizimini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va uni samarali moliyalashtirish bo'yicha so'nggi yillarda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat izchil olib borilmoqda. Ijtimoiy himoya tizimining institutsional jihatdan rivojlantirilishi, ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasining kengaytirilishi hamda moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilishi ushbu sohada muhim natijalarga erishishga xizmat qilmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar hisobiga kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifadagi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa aholining ijtimoiy farovonligini oshirish, kambag'allik darajasini kamaytirish hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va yagona axborot bazalarini shakllantirish jarayoni ijtimoiy yordamlarni taqsimlashda shaffoflik va manzillilikni ta'minlashga yordam bermoqda. Yagona ijtimoiy reyestr tizimining joriy etilishi orqali ehtiyojmand fuqarolarni aniqlash, ularni ijtimoiy yordam dasturlariga jalb etish hamda davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish imkoniyati kengaymoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish jarayonini yanada takomillashtirish zarurati ham mavjud. Mazkur tizimni rivojlantirishda nafaqat davlat budjeti mablag'lari, balki nodavlat sektor, xalqaro tashkilotlar hamda xususiy sektor imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini ta'minlash va uning qamrovini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirish samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda xususiy sektor va nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

2. Ijtimoiy yordam va nafaqalarni ajratish jarayonida raqamli texnologiyalarni yanada keng qo'llash, mavjud axborot tizimlarini takomillashtirish hamda yagona ijtimoiy reyestr bazasini doimiy ravishda yangilab borish zarur.

3. Ijtimoiy himoya tizimida manzillilik tamoyilini kuchaytirish maqsadida ehtiyojmand fuqarolarni aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim.

4. Nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ularning qamrovini kengaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Ijtimoiy himoya tizimi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholab borish uchun muntazam monitoring va tahlil mexanizmlarini joriy etish zarur.

6. Ijtimoiy himoya sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirish orqali ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash mumkin.



Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish orqali ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi yanada oshishi kutilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025 yildagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-17-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/docs/-7374261>
3. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar va hisobotlar. – <https://ihma.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti to'g'risidagi ma'lumotlar. – <https://imv.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Ijtimoiy soha bo'yicha statistik ma'lumotlar. – <https://stat.uz>
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Ijtimoiy himoya tizimi bo'yicha xalqaro tajriba materiallari. – <https://un.org>
7. Jahon banki. Social Protection and Labor: Strategy and Reports. – <https://worldbank.org>
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. Ijtimoiy himoya sohasiga oid qonun hujjatlari. – <https://parliament.gov.uz>
9. Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---